

“BOBURNOMA” MEMUAR ASARIDA TILGA OID TOPILMALAR

Ortiqov Azim

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyoti buyuk vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari bo‘lmish „Boburnoma“ asari haqida ma’lumotlar keltiriladi. „Boburnoma“ asari ustida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar haqida ma’lumot beriladi. Ushbu memuar asarning mumtoz matnlari asosida ko‘plab tilga va badiiy adabiyotga oid qimmatli topilmalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: „Boburnoma“, „Mubayyin“, „XattiBoburiy“, tarix, ibora, adabiyot, geografiya, etnografiya.

FINDINGS RELATED TO LANGUAGE IN THE MEMOIR “BOBURNOMA”

ABSTRACT

In the article, information is given about work “Boburnoma”, which is a memoir of Zahiriddin Muhammad Bobur, one of the great representatives of Uzbek classic literature. Based on the classic texts of the memoir, many valuable discoveries about language and fiction are discussed.

Keywords: „Boburnoma“, „Mubayyin“, „Hatti Boburiy“, history, phraselogy, literature, geography, ethnography.

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq madaniyatining yirik namoyondalaridan biri sanaladi. Bobur Mirzo hayoti davomida ko‘rgan kechirganlarini „Vaqoye“ asariga

kiritadi.(Keyinchalik bu asarni „Boburnoma”deyish rasm bo‘lgan).Hozirgacha bizga Boburning barcha asarlari to‘liq yetib kelmagan.Bir devon va islom qoidalariga asoslangan risolasi hamda “Volidiy”asarining erkin tarjimsigina bizgacha yetib kelgan.Bobur yaratgan “Xatti Boburiy” ham tilshunoslik rivoji uchun juda ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zahiriddin Muhammad Bobur qilgan ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston,Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi,etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan o‘sha davr o‘zbek klassik adabiyoti va adabiiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan —”Boburnoma”asaridir. Bu asar mazmuning rang-barangligi, ko‘plab materialni o‘z ichiga olganligi bilan, til va uslubning go‘zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o‘ziga tortgan va uning turli qo‘lyozma nusxalari izlana boshlangan edi. Asarning asli nomi —”Boburiya” bo‘lsada, uni —”Voqeanoma” , —”Tuzuki Boburiy”, —”Voqeoti Boburiy”,deb atadilar.Bu asarning to‘liq teksti 1857-yilda tukolog H.U.Ilimenskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo‘li bilan o‘zining to‘rt betlik nashr prinsiplarini ko‘rsatgan ruscha so‘z boshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishga H.U.Ilimenskiyning zo‘r faoliyati ko‘rsatganini alohida qayd etish kerak. Bu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz orentalistlaridan A.Beverij xonim —”Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan bir qo‘lyozmasining faksimilesini qo‘lyozmaning ayni o‘zini sinkografiya yo‘li bilan nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum. Bu ham to‘liq tekst bo‘lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba’zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan holi emasdir.

So‘z tanlash va uni joy-joyida qo‘llash Bobur uslubida alohida o‘rin tutadi.Adib ba’zi o‘rinlarda shunday so‘z va iboralar qo‘llaydiki,uning ma’nosini ijodkorning o‘sha damdagi kayfiyatidan yoki uning ayrim odamlar va hodisalar bo‘lgan munosabatidan qidirishga to‘g‘ri keladi.Muallif bir so‘z yoki iborani jumllarida takror qo‘llamaydi.Masalan,asaridan o‘rin olgan —”ko‘p”so‘ziga berilgan

muqobillarga nazar tashlasak, bu ma'no-besh, behad, bisyor, bebadal, bepayo, vofir, ziyod, kulli, mabzul, ma'fur, mufrid, pul, pur, arfaravon, bemumar, ko'chum, cho'x, cho'p, g'alaba, qalin va yana boshqa variantlarda berilganini ko'ramiz. Bu kabi ma'nodan so'zlarga deyarli har sahifada duch kelinadi va ularning har biri o'z joyida qo'llanganligi muallif mahoratiga dalildir. Ajdodlarimizdan o'tib kelgan bu kabi so'z va iboralar ham xalqimiz so'z xazinasining mulki albatta. Hozirda lug'aviy istifodada qayta o'z o'rnini topayotgan aksar tarixiy so'z va xilma-xil istilohlar Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy va boshqa allomalarimizning noyab asarlarida nozik did bilan ishlatilgan va mumtoz she'riyatimizning dovrug'ini oshirgan. Garchi eskirgan bo'lsa ham, juda ko'p ko'hna so'z va iboralar ham barhayot, muomaladan chiqmaydi. Aksincha, yangi-yangi ma'nolar kasb etdi, evrilib, yosharib boradi. Zamonaviy insonlarga tushunarli bo'lmagan kamchiliklarni tildan chiqarish emas, balki omma ma'rifatini ularni tushunish darajasiga ko'tarish kerak. Bunda izohlash, tafsir, sharh, talqin maqsadga muvofiq. Boburning purma'no g'azallari, —"Vaqoe" singari oliymaqom asarlarning xorijiy tillardagi mukammal tarjimalarini barpo etish uchun, avvalo, ularni teran tushunish shart."Boburnoma" da forcha she'r, maqol-matallarning tarjimasiz ishlatilishini ikkita narsadan darak beradi: avvalo yuqorida aytilganidek, Boburning fors-tojik adabiyoti, folklori, tilini yaxshi bilishini ko'rsata, ikkinchidan, o'sha davrda fors tili keng tarqalganini va turkiygo'y aholi uni bemalol tushungan. Aniqlanishicha, Boburning barcha asarlari leksikasidagi forscha so'zlar salmog'i 16,08 foizni tashkil etadi. Yana bir holat ko'zga tashlanadi. —"Boburnoma" da forscha so'zlarga asosan 2 xil turkiycha suffiks qo'shilgan. Va bu hodisa tillarni kontaktda ekanini yana bir marta ko'rsatib beradi: Bular, -ilk (-liq, -liq, luq) va -siz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bobur til san'atini shu darajada chuqur egallaganki, go'yo uning g'azallaridan o'ziga xos musiqa ovozi sizib turadi. Mana besh asrdirki, uning g'azallari hamon qalbni titratadi, oshifta dillarni qitiqlaydi. O'zbek adabiy tili tarixida esa bu murakkab, ayni paytda jiddiy masala dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur e'tiborini tortdi. U

o'zbek tilidagi nutq tovushlari bilan yozuv usulidagi nomuttanosiblikni sezib, mavjud alifboni isloh qilishga kirishadi va 1503-1504 yillarini ko'zda tutib, —"Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim", -deb yozadi. Bobur ixtiro qilgan bu yozuv turkiy xalqlar tillariaga mos alifbo qidiruv yo'lidagi katta jasorat edi. Bobur yozuvida hech bir harf nuqta bilan yozilmagani, soddaligi va qulayligi bilan iste'moldagi alifboga nisbatan ancha afzalliklarga ega edi. Bu, birinchidan, Boburning yetuk tilshunos olim sifatida nafaqat so'ga, balki har bir tovushga jiddiy e'tibor berib, unga ilmiy nuqtai nazardan yondashganligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, o'zbek tili imlosining hozirgi ahvoriga nazar tashlaydigan bo'lsak, masalaning mohiyati yanada chuqurroq ochiladi. Chunki o'zbek tili imlosi turkiy tillar ichida eng g'aribi. Tildagi nutq tovushlarini to'liq ifodalay oimaydi. Bobur o'zining —"Boburnoma" asarida ayrim tovushlarning qo'llanilishi va hatto ularda uchraydidan ba'zi jarayonlarni izohlash bilan ham tovushlar tadqiqotchisi ekanligini namoyish etadi. Bu ayni payda bizga o'sha so'zning, hatto ba'zi urg'ularning tarixini belgilash uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, u "min" va "sin" ning almashinib qo'llanilishini "Kashmir" nomini izohlash jarayonida juda chiroyli ifodalaydi: "... bu tog' elini kasderlar ... Hindiston eli "min" ni "sin" talaffuz qilur. Chun bu tog'da mu'tabar shahr Kashmir ... Bu jihatdin bo'la olurkim, Kashmir deyesh bo'lg'aylar". (B.342-b)

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ memuar asari tilga oid qarashlarni o'rganishdagi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda iboralar, imloga oid qarashlar haqida berilgan ma'lumotlar g'oyatda qimmatlidir. Zero, "Boburnoma" asarinining til xususiyatlarini o'rganar ekanmiz o'rta asrlardagi xalqimiz tili haqida dunyoqarashga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES) :

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. - Toshkent.: "O'qituvchi". 2017
2. Jalilov S. *Bobur va Andijon*. - Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1993. - 102 b.
3. V. Zohidov. *Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida*. Kitobda: *Bobir. Bobirnoma*. - T.: 1960;

4. Azimdjanova S. *Indiyskiy divan Babura*. T.: Fan, 1966.
5. X.Nazarova. "Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. *Dokt. diss.* — T.: 1980; 4.
Stebleva I.V. *Semantika gazeley Babura*. — M.: 1983.
6. H.Qudratullaev. *Boburning adabiy-estetik qarashlari*. -T.: Fan, 1983;
7. S.Hasanov. *Boburning „Risolayi aruz— asari*. -T.:1986;
8. Xayriddin Sulton. *Boburiynoma*. -T.:1996;
9. G'aybulloh as-Salom, N.Otajon. *Jahongashta „Boburnoma—*. — T.:1996;